

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNI TASHKIL ETISH

**Umarova Gulsanamxon**

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 31-sonli davlat maktabgacha talim tashkiloti  
direktori o'rinbosari*

**Annotasiya:** *“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini o'tkazish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy rivojlanishi uzluksizligi ta'minlanadi, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligi oshiriladi.*

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida” O'RQ-595-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-152-sonli Farmoni, 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-231-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida metodik xizmatni tashkil etish bilan ta'lim-tarbiya jarayoni sifati oshirish, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy mahoratini o'stirish hamda metodik ishlarga tez moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Metodist - bu ta'limning ma'nosini tushunishga yordam beradigan, mashg'ulotlarni yaratadigan, motivatsiyani oshiradigan va natijalar uchun javobgarlikni oshiradigan, tashkilotning ta'lim-metodik faoliyatini samarali tashkil etadigan, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib boradigan zamonaviy pedagog.

### **ASOSIY QISM:**

Maktabgacha bo'lgan yoshda bolalarning axloqiy-estetik didi shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimini yanada kengaytirish ishlari yana jadallashadi. Kelayotgan yilda maktabgacha bo'lgan bolalarni 65 foizga, 2023 yilgacha 75 foizga ta'lim-tarbiyaga qamrab olinish ishlari olib boriladi. Bu ish uchun budjetdan 600 milliard subsidiya berish hisobidan qo'shimcha 2 mingta nodavlat bog'cha tashkil etib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi. 2021 yilda bolalarni maktabga tayyorlash bepul tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalar yoki ularning 82 foizi qamrab olinadi. Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'lim shakllari kengaytiriladi. Bunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'limni uyda berish tizimi joriy qilinadi. “Kelgusi yil 30 ta yangi maktab

qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy texnik bazasini yaxshilash maqsadida budjetdan 2 trillion so'm ajratiladi", – dedi Shavkat Mirziyoev.

O'zbekiston Respublikasi o'z muastaqilligini yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning har tomonlama bilimdon, ma'naviy jismoniy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liqdir. Eng avvalo, yosh avlodning ilmiy-dunyoviy bilimlar asoslarini puxta egallashi, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamining hosil bo'lishi va ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etilishiga erishish lozim. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jaxonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosimizni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga bevosita bog'liqdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi. Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli dono va albatta baxtli bo'lib yashashlari shart<sup>7</sup>. Jonajon O'zbekistonimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach har bir sohalarga o'zlarishlar yangiliklar kiritildi. Shu jumladan ta'lim sohasida bir qancha ham yangi texnika va texnologiyalarni yaratish ularni amalyotga tatbiq etish, hamda innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish kabi bir qancha maqsadlarni oldinga qo'ydi. Bu borada "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunda ishlab chiqildi. 2011 – yilda Respublikamizda maktabgacha ta'lim rivojining asosiy yo'nalishlari maqsad va vazifalari, tamoyillarini o'z ichiga olgan "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi" ishlab chiqildi<sup>8</sup>. O'zbekiston tarixida maktabgacha ta'limning rivojlanishi ilk bor Turkistonda dastlabki davlat bolalar bog'chalari 1918 – yilning 2 – yarmida tashkil etila boshlandi. 1920 – yilda Turkiston respublikasida 71 ta bolalar bog'chasi 1921 – yilga kelib bolalar bog'chalarining soni 105 taga yetgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda bolalar bog'chalari va bolalar maydonchalarining tarmog'i deyarli ikki barobar kengaydi.

Zamonaviy ta'lim dasturlaridan texnika vositalaridan to'g'ri foydalana bilishini talab qiladi. Bugun bog'cha yoshidagi bolalarni ziyalik bilan axborot texnologiyalarini o'zlashtirib olayotgani maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv tarbiya dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishni talab etadi. Shu kungacha mamlakatimizda bir qancha yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti qurildi va bog'chalarni kapital rekonstruksiya qilindi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi tayyorlanmoqda.

#### **KIRISH:**

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirish, takomillashtirishni, ya'ni boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev "Xalqimiz bugun katta orzu-umidlar bilan yashayapti. Bu orzu-umidlarni kim amalga oshiradi? Avvalo, mana shu zalda o'tirgan rahbarlar, mutasaddi va mutaxassislar, navqiron yoshlarimiz. Buning uchun bizda kuch va imkoniyat, bilim va salohiyat ham, qat'iy iroda, intilish va azmu shijoat ham yetarli" degan fikrlarni ilgari surgan. Bu bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri bo'lib. nafaqat boshqaruv muammolari, balki sub'ektlarning boshqaruvni samarali tashkil etish eng avvalo, ta'lim tizimining turli bo'g'ini rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning yo'l-yo'riqlarini aniqlash, yangi sharoitlarga muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor ta'lim sifatini nazorat qiladi uslubchi esa tashkil etadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotining majburiyatlari sirasiga, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida tashkil etish; ta'lim-tarbiya jarayonlarini maktabgacha ta'lim standarti talablariga mos ravishda amalga oshirish; pedagogik va metodik faoliyatni uzviylikda olib borish; bolalar uchun qulay va rivojlantiruvchi muhit yaratish. Uslubchining faoliyati keng qamrovli bo'lib, boshqaruvning barcha vazifalarini amalga oshirishni taqozo qiladi ya'ni axborotni tahlil etish; motivatsion va maqsadli; rejali va diagnostik; tashkiliy; ijro qilish; nazorat-tashxis; korreksion va tartibga soluvchi. Shundan kelib chiqib, ta'lim menejmentini rivojlantirish yo'nalishidagi islohotlar barcha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni metodik tashkil etish va boshqaruv mexanizmlarini fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali, innovatsion metodlardan foydalangan holda takomillashtirish hamda boshqaruvga xos bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi

Zamonaviy jamiyatda boshqaruvda "menejment" tushunchasi ko'p qo'llanilmoqda. Menejment ta'lim jarayonini boshqarish tamoyillari, metodlari, usul va shakllari, shuningdek boshqaruv san'atidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruv madaniyati ham muhim rol o'ynaydi. Tashkilot direktori jamoa a'zolariga insoniy qadriyat va ijtimoiy me'yor asosida munosabatda bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifalari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- Tarbiyalanuvchilarning psixik va jismoniy sog'ligini himoya qilish va mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- Tarbiyalanuvchilarni aqliy, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash va kafolatlash;
- Tarbiyalanuvchi va pedagog –xodimlar bilan umuminsoniy qadriyatlar asosida muloqotda bo'lish;
- Bolalarni tengdoshlari va kattalar jamoasi ta'sirida ijtimoiylashuvini ta'minlash;
- Bolalarni individual qobiliyati va iqtidorini aniqlash va rivojlantirish;
- Bolalarni kompleks rivojlantirish uchun oilalar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining metodik kompetensiyasi sirasiga ta'limtarbiya jarayonini metodik jihatdan takomillashtirish va metodik xizmatni samarali tashkil etish, o'quv-tarbiyaviy hujjatlar, ish rejalarni tasdiqlash va qayta ishlash., tarbiyalanuvchilarning "Ilk qadam" dasturi asosida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarni monitoring qilish, ta'limtarbiya jarayonini tahlil qilish kiradi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun ularda yetarli darajada bilim, ko'nikma va malaka shakllangan bo'lishi zarur. Maktabgacha ta'lim jamiyat avangardi sifatida taraqqiyotning oldida borishi va erishiladigan yutuqlarning ibtidosi sifatida ilmiy jihatdan asoslab berilishi lozim. O'z-o'zidan ayon bo'ladiki, maktabgacha ta'lim ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida oldingi o'rinlarda bo'lishi lozim. Ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va rivojlantirish asosida ijodiy qarashini tarkib toptirish, pedagog-tarbiyachi faoliyatining kreativlikka asoslanishini talab etadi.

Bolaning ijtimoiylashuvi, uning ong tafakkurida yangicha qarashlarini tarkib topishida, bilim olishga bo'lgan yangicha munosabatlarni yuzaga keltirishda ta'lim tarbiya tizimi uning mazmuni va ta'lim tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil etish bilan uzviy bog'liq. Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning asosiy tendensiyalarini aniqlash ta'limdagi va jamiyatdagi hozirgi vaziyatni hisobga olgan holda ularning ta'lim sifatiga ta'sirini belgilash uning boshlang'ich bosqichi bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim sifatini boshqarish jarayoni hamisha, eng avvalo, baholash ko'rsatkichlarini tanlash, tegishli baholash mezonlaridan foydalanish, olingan ma'lumotlarni ekspert baholashi mobaynida talqin qilishning to'g'riligi va hokazolar bilan bog'liq yetarlicha miqdordagi subyektiv omillarni o'ziga qamrab olar ekan, bunda uning subyektlari uchun olingan ma'lumot va uning bahosining xolisligiga va aniqligiga erishishga intilish o'ta muhimdir.

#### **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy ishni asosiy boshqaruv funksiyasi sifatida qaralganda uni amalga oshirganda pedagogik tahlil, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tuzatish va tartibga solish nazarda tutiladi. Metodik ishlar samarsi pedagoglar faoliyatini baholash bilan bog'liq.[6]So'nggi yillarda ta'lim tizimida ta'lim sifatini miqdoriy baholashning nazariy asoslarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy va amaliyot sohasi-kvalimetriya yuzaga keldi. Shu jumladan, ta'lim jarayoni ishtirokchilari

faoliyatini baholashda olingan ma'lumotlar miqdoriy me'yorlarga nisbatan baholanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni metodik jihatdan kuzatish va tahlil etish hamda nazoratda baholash me'yorlariga qo'yilgan talablar maktab ta'limiga qaraganda kam o'rganilgan. Shuning uchun, maktabgacha ta'lim tizimida ham maktab ta'limi singari qoidalarni belgilash hamda tartibga solishni talab etadi. Bu kabi talablarni belgilash soha pedagoglarini himoya qilish, faoliyat jarayonidagi ziddiyatli vaziyatlarni kelib chiqishini oldini olish, pedagoglar ishiga sub'ektiv baho berilishidan himoyalash, ta'limiy jarayonda pedagogik etikaning buzilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqiladi. Mas'ul shaxslar tomonidan olib boriladigan nazoratni tashkil etish doimo rejali amalga oshirilishini talab etadi. Uni shunday tashkil etish kerakki, u pedagoglarda ta'limiy mashg'ulotlar jarayonida ijobiy tashabbus, o'z ishiga mas'uliyat, tarbiyalanuvchilarga nisbatan ijobiy munosabat hamda ta'limiy jarayonga bo'lgan javobgarlik hissini uyg'otsin. Shundagina biz, samarali metodik ishni olib borish orqali, sifatli ta'lim jarayonini ta'minlagan bo'lamiz. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy ishlarni tashkil etishda metodistlar asosiy o'rinni edallaydilar. Ta'lim jarayonidagi ko'plab muammolarni o'rganib chiqish va hal etish uning malakasi, shasiy fazilatlariga hamda kasbiy mahoratiga bog'liq. Ko'pincha tizimda shu omilga yetarlicha e'tibor qaratilmaslik tufayli maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonining rivojlanishiga va sifatiga to'sqinlik qiladi. Uslubiy xizmatni to'g'ri tashkil etish esa, maktabgacha ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni hal etish imkonini beradi.

#### **GLOSSARIY**

Axborotlashtirish — yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni;

Axborot resursi — axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi, shu jumladan axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e'lon qilinadigan audio-, video-, grafik va matnli axborot;

Axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori — axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

Axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi — qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

Axborot texnologiyasi — axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar;

Axborot tizimi — axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

ISO/IEC 27001 — bu Xalqaro standartlashtirish tashkiloti va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan xalqaro axborot xavfsizligi standartidir. Sertifikat axborot xavfsizligini boshqarish tizimini (AXBТ) yaratish, ishlab chiqish va ta'minlash uchun axborot xavfsizligi sohasidagi talablarni o'z ichiga oladi.

ISO/IEC 27001 dunyoda eng mashhur standartlardan biri bo'lib, axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari (AXBТ) talablariga javob beradi. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari nima degani? AXBT – bu kompaniyadagi maxfiy ma'lumotlarni xavfsiz bo'lishi uchun boshqarishning tizimli yondashuvidir. Ushbu mexanizm kichik, o'rta va yirik korxonalariga axborot xavfsizligini ta'minlashda yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni O'RQ595.-T.: 2019 y

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 802- son qarori.-T.:2020 y

3. Belaya K.Yu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida uslubiy ishlar. Tahlil, rejalashtirish, shakl va usullar. - M.: Sfera, 2007. - 96 b

4. Fayzieva M.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish texnikasi. Falsafa.2022.195 b

5. Fayziyeva M.M. Methods And Approaches for Monitoring and Assessing Educators Performance.”The Peerian Journal 2024.48 b

6. Qodirova F.R.Maktabgacha pedagogika. -T.:”Tafakkur”.2019.-562 b.

7. Pozdnyak L.V., Volobueva L.M. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari // Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish. - 2006. - 5-son. - Bilan.

8. <https://lex.uz/docs/>

9. [www.elibrary.ru/item.asp?id=41442733](http://www.elibrary.ru/item.asp?id=41442733)